


Xiva tarixnavisligi va Qo'ng'irotlar sulolasi: Ogahiydan Bayoniygacha

Xorazm Ma'mun akademiyasi katta ilmiy xodimi Sh.Matyakubovning "Qo'ng'irotlar sulolasi davri va xonlariga oid voqeotlar zikri" nomli monografiyasi nashr etildi.



Ushbu qo'llanmada Xiva xonligi hududida XIX asr va XX asr boshlarida bo'lib o'tgan tarixiy voqeotlar aks etgan.

Jumladan, Qo'ng'irotlar sulolasi inoqlarining Xiva xonligi taxtiga kelishi, shajara va sulolalar tarixi, xonlar almashinuvi, xonlikdagi ichki boshqaruv siyosati va tashqi diplomatiya, o'zaro ichki urushlar va tashqi bosqinlar, ichki va tashqi savdo-sotiq va bozor munosabatlari, qurilish, madaniy-ma'rifiy va maishiy hayot, xonlik hududida kechgan maishiy va ijtimoiy jarayonlar - o'sha davrda yashab, ijod qilgan Xorazm tarixnavisligining yetuk namoyondalari shoir, tarixchi va tarjimon Muhammad Rizo Ogahiyning beshta tarixiy asarlari orqali, Ogahiydan keyingi Xiva xonligi saroy tarixnavisligi an'anasi munosib davomchisi Muhammad Yusuf Bayoniy, xonlar oilasi vakili, tarixchi Sayid Homid to'ra Komyob tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar, Xiva xoni Muhammad Aminxon davrida Erondan Xivaga elchi sifatida kelgan Rizoqulixon Hidoyatning "Saforatnomayi Xorazm" deb nomlangan kundaliklarida bitilgan Xiva xonligi va xonlari tarixini yorituvchi noyob tarixiy ma'lumotlar orqali shuningdek yuqoridagi va ularga yaqin boshqa mavzularda muallif tomonidan mahalliy va xorijiy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalar orqali yoritilib beriladi.

Qo'llanma oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining talabalari, doktorantlar, tadqiqotchilar, maktab o'quvchilari shuningdek Xiva tarixiga qiziquvchi mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun mo'ljallangan.